O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sabirov Zarifboy Raximbergan o‘g‘li

Ma’mun universiteti, o‘qituvchi.
e-mail: sabirov.z@mamunedu.uz

Annotatsiya.

Ushbu maqolada evristik yondashuv asosida o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqotchilik faoliyati o‘quvchining tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi bilan cheklanmay, muammoli vaziyatni anglash, savol qo‘yish, faraz ilgari surish, axborot izlash, dalillarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash va o‘z faoliyatini refleksiv baholash jarayonlarini qamrab olishi asoslangan. Evristik yondashuvning psixologik jihati o‘quvchining bilishga bo‘lgan ehtiyoji, ichki motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi, ijodiy va tanqidiy tafakkuri hamda metakognitiv jarayonlari bilan bog‘liq holda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik, evristik faollik, kognitiv jarayonlar, pedagogika, psixologiya, tafakkur.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ЭВРИСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Сабиров Зарифбой Рахимберган угли

Университет Маъмуна, преподаватель.

Аннотация.

В статье проанализированы педагогико-психологические механизмы развития исследовательской деятельности учащихся на основе эвристического подхода. Обосновано, что исследовательская деятельность не ограничивается усвоением учащимися готовых знаний, а охватывает процессы осмысления проблемной ситуации, постановки вопросов, выдвижения гипотез, поиска информации, анализа доказательств, сравнения альтернативных решений и рефлексивной оценки собственной деятельности. Психологический аспект эвристического подхода раскрывается во взаимосвязи с познавательной потребностью учащегося, внутренней мотивацией, самостоятельным мышлением, творческим и критическим мышлением, а также метакогнитивными процессами.

Ключевые слова: исследовательская деятельность, эвристическая активность, когнитивные процессы, педагогика, психология, мышление.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS’ RESEARCH ACTIVITIES BASED ON A HEURISTIC APPROACH

Sabirov Zarifboy Raximbergan o‘g‘li

Mamun University, Lecturer.

Abstract.

This article analyzes the pedagogical and psychological mechanisms for developing students’ research activities based on a heuristic approach. It is substantiated that research activity is not limited to the acquisition of ready-made knowledge but encompasses understanding problem situations, formulating questions, proposing hypotheses, searching for information, analyzing evidence, comparing alternative solutions, and reflectively evaluating one’s own activities. The psychological dimension of the heuristic approach is examined in relation to students’ cognitive needs, intrinsic motivation, independent thinking, creative and critical thinking, and metacognitive processes.

Keywords: research activity, heuristic activity, cognitive processes, pedagogy,

psychology, thinking.

Kirish. Bugungi kunda har bir shaxsdan tadqiqotchilikka xos xulq-atvorni namoyon etish tobora ko‘proq talab qilinmoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda pedagogik psixologiya, pedagogika va ta’lim amaliyotida o‘quvchining tabiiy izlanish faolligiga muhim ta’limiy resurs sifatida qiziqish bildirilmoqda. Mazkur holat O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun yangi bo‘lgan pedagogik hodisa — tadqiqotchilik asosida o‘qitishning vujudga kelishiga asos yaratdi. Tadqiqotchilik asosida o‘qitish ta’lim jarayonida o‘qitishning yangi modellarini joriy etishni taqozo qiladi. Ushbu modelda o‘quvchining mustaqil bilish faoliyati ustuvor o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilik asosida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarning o‘quv harakatlarini faollashtirish, unga tadqiqotchilik va ijodiy mazmunni mujassamlashtirish hamda shu orqali o‘quvchilarga o‘z bilish faoliyatini tashkil etish tashabbusini topshirishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tadqiqotchilik asosida o‘qitish vazifalari o‘quvchining tabiiy qiziquvchanligini rag‘batlantirish, uni savollar berishga va ularga mustaqil javob topishga undash bilan bir qatorda evristik faollikni shakllantirishga ustuvorlik berishi lozim.

O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun madaniy-ta’limiy an’analarni tubdan qayta ko‘rib chiqish, ta’lim maqsadlarini, bilimlarga va ularni egallash usullariga bo‘lgan munosabatni keskin o‘zgartirish taqozo qilinmoqda. Tadqiqotchilik xulq-atvori ta’lim olish, barcha darajadagi bilish funksiyalarini takomillashtirish va ijtimoiy tajribani egallashning samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Insonda esa u shaxsiy rivojlanish va o‘zini o‘zi rivojlantirishning muhim manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Oddiy kuzatishlar jarayonida ham o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari qay darajada rivojlanganligi uning kognitiv va affektiv rivojlanishdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining shakllanishi o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoniga aylanish imkoniyatini kengaytiradi. O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi I. P. Pavlov tomonidan o‘rganilgan. Uning yo‘naltiruvchi-tadqiqotchilik reaksiyalariga bag‘ishlangan ishlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Aynan I. P. Pavlovning XX asr boshlarida yaratgan asarlari mazkur sohadagi ilmiy-psixologik izlanishlarning boshlanishiga turtki bergan [1]. Psixologiyada tadqiqotchilik xulq-atvorini o‘rganish an’anaviy ravishda juda keng qamrovda olib borilmoqda va hozir ham shunday davom etmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida quyidagilarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan:

– hayvonlar tadqiqotchilik xulq-atvorining xususiyatlari;
– katta yoshli insonlar tadqiqotchilik xulq-atvorining o‘ziga xos jihatlari;
– bolalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini tashxislash va rivojlantirish mexanizmlari.

Hozirgi vaqtda psixologlarning tadqiqotchilik xulq-atvori muammolariga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Tadqiqotchilik xulq-atvori psixologiyasining umumiy asoslariga bag‘ishlangan maxsus fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, tadqiqotchilik qobiliyatlarini tashxislash va rivojlantirish muammolari ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, pedagogik psixologiya va pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning ko‘lami kengaymoqda. Bu sohalarda tadqiqotchilik xulq-atvori shaxsning rivojlanish jarayonini o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoniga aylantirish imkonini beruvchi samarali vositalardan biri sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqotchilik faoliyati izlanish faolligi mexanizmlarining amal qilishi natijasida vujudga keladigan va tadqiqotchilik xulq-atvori asosida tashkil etiladigan intellektual-ijodiy faoliyatning alohida turi hisoblanadi. Izlanish faolligi noaniq vaziyatda izlash dalilining mavjudligi bilangina belgilansa, tadqiqotchilik xulq-atvori asosan subyektning mazkur vaziyatda faoliyat ko‘rsatishining tashqi kontekstini tavsiflaydi. Tadqiqotchilik faoliyati esa ushbu faoliyatning ichki tuzilishini ifodalaydi. Tadqiqotchilik faoliyati mantiqan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tadqiqotchilik xulq-atvorini rag‘batlantiruvchi omillar, ya’ni izlanish faolligi, mazkur xulq-atvorni amalga oshirish mexanizmi. Insonda bunday mexanizm vazifasini tafakkur bajaradi. Bu o‘rinda J. Gilford tomonidan taklif etilgan tafakkurni konvergent va divergent turlarga ajratish g‘oyat samarali hisoblanadi. Mahsuldor tafakkurning har ikkala turi ham noaniq vaziyatlarda tadqiqotchilik xulq-atvorini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhimdir [2].

Tadqiqotchilik faoliyati faqat izlanish faolligining mavjudligi bilan cheklanmaydi. U quyidagi jarayonlarni ham qamrab oladi:

– olingan natijalarni tahlil qilish;
– natijalar asosida vaziyat dinamikasini baholash;
– vaziyatning keyingi rivojlanishini prognoz qilish;
– kelajakda amalga oshirilishi mo‘ljallangan xatti-harakatlarni modellashtirish va bajarish;
– tadqiqotchilik xulq-atvorini korreksiyalash.

Keyinchalik ushbu jarayonlarning barchasi amaliyotda, ya’ni kuzatish va eksperiment vositasida tekshiriladi hamda qayta baholanadi. Bu esa izlanish faolligini yangi darajaga olib chiqadi va yuqorida sxematik tarzda ifodalangan izchillik yana takrorlanadi.

Tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektda o‘ziga xos shaxsiy tuzilma — tadqiqotchilik qobiliyatlari mavjud bo‘lishini talab qiladi. Psixologiya fani an’analariga ko‘ra, tadqiqotchilik qobiliyatlarini tadqiqotchilik faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi subyektiv shartlar vazifasini bajaradigan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari sifatida tavsiflash o‘zining mantiqiy asoslariga ega.

O‘zbek psixologlarining tadqiqotlarida tadqiqotchilik fenomeni tadqiqotchilik qobiliyati, bilish faolligi, ijodiy

tafakkur va shaxsning mustaqil izlanishga tayyorligi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. A. I. Rasulov tadqiqotchilik qobiliyatining mezonlari va uni psixologik diagnostika qilish masalalarini tadqiq qilgan, N. A. Saidakbarova talabalarda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rgangan [3]. Mazkur ilmiy yo‘nalish tadqiqotchilikni shaxsning intellektual va faoliyatli imkoniyatlari bilan bog‘liq psixologik hodisa sifatida talqin qilish uchun nazariy asos yaratadi. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek psixologlarining tadqiqotlarida loyiha-tadqiqotchilik faoliyatining tafakkur tezligi, moslashuvchanligi va originalligiga ta’siri eksperimental jihatdan o‘rganilgan. Bu natijalar tadqiqotchilik ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchining bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, intellektual faolligi va mustaqil izlanish tajribasi bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Katta avlod o‘zbek psixologlari ishlarida ham mazkur yo‘nalish bo‘yicha jiddiy nazariy asoslar mavjud. Ularning aksariyati bu hodisani aynan “tadqiqotchilik xulq-atvori” atamasi bilan emas, balki bilish faolligi, tafakkur mustaqilligi, muammoli vaziyatda fikrlash, ijodiy qobiliyat, intellektual faollik va o‘quv motivlari doirasida o‘rgangan. Bu borada birinchi navbatda E. G‘. G‘oziyevni ko‘rsatish mumkin. Uning umumiy psixologiyaga oid fundamental ishlarida tafakkur insonning muammoli vaziyatlarni anglashi va ularning yechimini topishi bilan bog‘liq yuqori darajadagi bilish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Tafakkurning mustaqilligi insonning muammoni o‘z kuchi bilan ko‘ra olishi, uni hal qilish usullarini izlashi va olingan natijaning to‘g‘riligini tekshirishi bilan bog‘liq holda tavsiflangan. E. G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” darsligida bilish jarayonlari va shaxs faoliyatining psixologik mexanizmlari keng yoritilgan. Shu nuqtayi nazardan, uning qarashlari o‘quvchining tadqiqotchilik faoliyatidagi muammoni anglash, mustaqil fikr yuritish va yechim izlash mexanizmlarini asoslash uchun muhim [4].

M. G. Davletshinning ilmiy merosi ham o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida o‘quvchi-yoshlarning texnik qiziqishlari va texnik qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari maxsus o‘rganilgan. Texnik qobiliyatning psixologik tabiati obyekt xususiyatlarini tahlil qilish, konstruktiv fikrlash, amaliy muammoga yechim topish va bilimni yangi sharoitda qo‘llash bilan bog‘liq. Shu sababli M. Davletshinning ishlarini tadqiqotchilik ko‘nikmasining intellektual-amaliy va ijodiy asoslarini ochishda qo‘llash mumkin [5].

Xulosa qilib aytganda, evristik yondashuv asosida o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishni faqat yangi metod yoki topshiriqlarni qo‘llash bilan izohlash yetarli emas. Bu jarayon, avvalo, o‘quvchining inson sifatidagi tabiiy qiziqishi, bilishga bo‘lgan ehtiyoji, savol berishga jur’ati, xato qilishdan qo‘rqmasligi va o‘z fikrini mustaqil qurishga intilishi bilan bog‘liq murakkab pedagogik-psixologik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Павлов И. П. *Естественнонаучное изучение так называемой душевной деятельности высших животных.* – 1906.
2. Guilford J. P. The Structure of Intellect // *Psychological Bulletin.* – 1956. – Vol. 53, No. 4. – P. 267–293.
3. Saidakbarova N. A. Talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari // *O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.* – Toshkent, 2024. – B. 364–366.
4. G‘oziyev E. G‘. *Umumiy psixologiya.* – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
5. Давлетшин М. Г. *Психология технических способностей школьников.* – Ташкент: Фан, 1971. – 176 с.